


YANGI O'ZBEKISTONNI BIRGA QURAMIZ



Sadikova Yorkinoy Salijonovna

SamDU yuridik fakulteti, Davlat huquqiy fanlar kafedrasi mudiri, yuridik fanlar nomzodi,

yorkinoy.sadikova@bk.ru

Sharipov Asrorjon Safar o'g'li

1-bosqich 102-guruh talabasi,

Asrorjonsharipov231@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda zamon bilan hamnafas bo'lgan yetuk salohiyatli, innovatsion g'oyalarga ega bo'lgan, jahon sitandartlariga to'laqonli javob bera oladigan yosh kadrlarni tayyorlash jarayonida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar natijalari, ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, ustoz- shogird ananalari, yoshlarga oid davlat siyosati, innovatsion g'oyalar, kasbga o'qitish, jamiyatda shaxs sifatida o'z o'rniغا ega bolishda ko'maklashish

Bilamizki har qanday davlatning asos tayanchi bu uning kelajagi hisoblanadi. Keljakning assosini albatta yoshlar tashkil etadi. Bu ikki tushuncha bir biri bilan o'zaro uzviy tushuncha. Vaqtlar o'tayapti, zamon o'zgarmoqda. Endilikda hech qanday eskicha qarashlar turli xil ko'rinishdagi xarakterlar mavjud emas. Bugungi kunga kelib har bir davlat uchun zamon bilan hamnafas, turli innovatsion g'oyalarga ega bo'lgan yetuk salohiyatli, ilmli, bilimga chanqoq kadrlar kerak bo'lmoqda, chunki zamon shuni talab qilmoqda, vaqtlar o'tgan sari odamlar ham o'zgarmoqda dunyoqarashi kengaymoqda.

Yurtimiz Temuriylar, Buxoriylar, Navoiy, Boburiylar, Xorazmiylar yurti. Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning "Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz. O'g'il qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlarga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz" deya ta'kidlagan fikrlari har bir yosh avlod ko'ksini faxr- iftixorga to'ldirdi. Yurtmizda ham yoshlar masalalari bo'yicha istiqbolli rejalar amalga oshirilmoqda. Buning yaqqol namunasi sifatida mahallalarda hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari lavozimlarining joriy etilishi, Yoshlar ishlari bo'yicha respublika hamda uning hududiy boshqarmalarining tashkil etilishi. Bularning barchasi yoshlarni har tomonlama qo'llab quvatlash, ularning jamiyatda o'z o'rmini topishda

ko'maklashish, ulardagi muammolarni joyida bartaraf etish va ularga huquqiy jihatdan ko'rsatmalar berish sohaning asosiy maqsad va vazifalari hisoblanadi. Ushbu sohalardagi kadrlar ham yoshlarning o'zidan jalb qilinmoqda. Yoshlar bu albatta davlatning asosi. Agarda davlatni bir daraxt misolida oladigan bo'lsak biz yoshlar uning ildizlarimiz. Ildiz qanchalik mo'rt bo'lsa, daraxt hech ham rivojlanmaydi rivojlanish bosqichi orqaga ketaveradi. Agarda ildiz qanchalik mustahkam baquvvat bo'lsa, daraxt tezkorlikda rivojlanib yerga mustahkam o'nashadi hamda uning mevasi ham juda shirin va albatta sifatli bo'ladi. Darxtning po'stlogi bizning amalga oshirgan ishlarimizning vaqtidari, daraxtning mevasi esa biz yoshlarning ishlarimizning samarasi hisoblanadi. Biz qanchali yetuk salohiyatga ega bo'lib birlashsak mevamiz juda ham sifatli bo'ladi.

Hozirgi vaqtga kelib yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Voyaga yetmaganlarning himoyasi oldingi qatlama turmoqda. Ularni har tomonlama himoyasini tashkil etish bo'yicha choralar ko'rilmoxda. Voyaga yetmaganlarning huquqlari boyicha bosh qomusimiz bo'lmish konstitutsiyamizning 45- moddasida ham mustahkamlanadi. Unga ko'ra sahovat uylari, mehribonlik uylari, mehr-muruvvat uylari tarbiyalanuvchilarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi, 64-moddada esa „Ota onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish vatarbiyalashga majburiyligi” haqida so'z boradi. Normativ huquqiy hujjatlar misolida oladigan bo'lsak, 1992 yilgi „Bola huquqlari to'g'risida konvensiya” va uning implementatsiya qilinishi ortidan 2008-yil 7-yanvarda „Bola huquqlarining kafolatları to'g'risida ”qonunning qabul qilishi yoshlar huquqlarini yanada mustahkamladi. 2019 -yilga kelib yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan „Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid chora – tadbirlar to'g'risidagi 4296-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror orqali O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari boyicha vakili(ombudsman) o'rinnbosari- Bola huqulari bo'yicha vakil lavozimi joriy qilindi. Biz yoshlar o'zimizga savol berishimiz kerak. Ya'ni bizga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan qay darajada foydalanayapmiz, bizning har birimizning kelajakdagi rejalarimiz qanday, bizning amalga oshirayotgan har bir ishimiz bu kelajakka qadam hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan soha vakillari orasida yana biri bu O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati xodimlari. Yurtboshimiz tomonidan 2021-yildan e'tiboran yoshlar masalalari ushbu soha vakillari zimmasiga yuklatildi. Soha vakillariga yoshlar masalalari bo'yicha chora tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan yurtboshimiz tomonidan tegishli topshiriqlar berildi. Davlat xavfsizlik xizmati hududiy boshqarmalari hamda Yoshlar ishlari agentligini hududiy tarmoqlari bilan hamkorlikda turli xil ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, hududlarda yoshlarni vaqtini samarali o'tkazish maqsadida turli xil sport, madaniyat va san'at tadbirlari o'tkazildi. Davlat xavfsizlik xizmati va yoshlar ishlari agentliklari tomonidan yoshlarni mehnatga jalb

etish maqsadida mehnat qurollari (motokultibatorlar) va boshqa turdagি texnikalar taqdim etilmoqda .

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat natijasida yoshlar muammolari o'z o'rнida bartaraf etilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan yoshlar masalalariga oid ko'plab amaliy topshiriqlar bermoqdalar. Mutasaddi vakillar tomonidan topshiriqlar o'z vaqtida bajarilmoqda. Xususan davlatimiz rahbari 2023-yil 22-fevral sanasida o'tkazgan majlislarida topshiriqlarining asosini yoshlar masalalariga qaratdilar. Davlatimiz rahbari yoshlarni IT ga o'qitish, ularga ishlashi uchun sharoit va mahsuloti uchun bozor yaratish zarurligini ta'kidladilar. Bu borada 1-apreldan „electron hukumat” , „Beznes uchun dastur” , ta'lif yo'naliishlari bo'yicha mukofot jamg'armasi 1 million dollar bo'lgan respublika tanlovi boshlanadigan bo'ldi. Hokimlarga bunday tanlovlarni viloyat va tumanlarda ko'proq o'tkazish lozimligi ko'rsatib o'tildi. Shu bilan birga, hududlarda yoshlar yaratgan 50 ta eng yaxshi dastur Raqamlashtirish jamg'armalari hisobidan sotib olinadigan bo'ldi. 1-aprel sanasidan boshlab IT ta'lif markazlari va ularning bitiruvchilari uchun yangi sharoitlar yaratiladigan bo'ldi. Bunday ishlar natijasida, o'z bitiruvchilarini IT texnologiyalarni eksport qiluvchi kompaniyalarga ishga joylashtirsa, markazlarga har bir mutaxassis uchun 25 million so'mgacha, nogironligi bo'lgan yoshlarga esa 35million so'mgacha subsidiya beriladigan bo'ldi. IT sertifikati bor yoshlarga kompyuter xaridi uchun 7,5 million so'm miqdoridagi imtiyozli kredit hamda Mahallabay ishslash va Yoshlar agentliklari, Bandlik jamg'armasi tomonidan berilayotgan subsidiya ularning shaxsiy plastic kartalariga o'tkazib beriladigan bo'ldi. Yurtboshimiz topshiriqlari davomida oliy ta'lif sohasiga to'xtalib o'tdilar.Unga ko'ra har bir oliygohning bitiruvchilari o'z yo'naliishlaridagi IT dasturlarda ishslashni o'rganishi kerak deya so'zladilar. Shu munosabat bilan Oliy ta'lif va Raqamlashtirish vazirligiga : qurilish, geologiya, mashinasozlik, transport kabi yo'naliishlarda muhandis- texnologlarni tayyorlash uchun zamonaviy dasturiy mahsulotlarni o'rganib, yangi o'quv ylidan oliygoohlarda joriy qilish, IT park va uning filiallarini bunday oliygohlarga bog'lab, o'qituvchi va talabalarni yangi dasturlarda ishslashga o'rgatish topshirig'I berildi.

Xulosa o'rнida, biz yoshlar yaratilib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, maqsadlarni katta qo'yishimiz kerak.Zeroki biz bu buyuk davlatning ertasi buyuk kelajagining bunyodkorlarimiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev Yangi o'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. „ Tasvir” nashriyot uyi Toshkent-2021. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi hamda O'zbekiston yoshlari forumidagi nutqidan.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi „ O'zbekiston” NMIU Toshkent-2021
3. „ Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 14.09.2016yildagi O'RQ- 406-son

Foydalilanigan electron resurslar:

1. http://www.lex.uz
2. http/www.ombudsman.uz

